

## “Zulfiyaxonim”ning ilk tuman g’oliblari

2020 yil 9 noyabr kuni Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani tomonidan “Zulfiya” nomidagi Davlat mukofotiga Toshkent irrigatsiya va qishloq xo’jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talaba qizlaridan 5 nafari, mazkur institut qoshidagi Interneshnl-Xaus-Toshkent akademik litseyidan 5 nafar o’quvchi qizlar, viloyatlar kesimida esa 10 dan ortiq talaba qizlarimiz talabgorlar tuman tanloviga fan, sanat, ta’lim va adabiyot, sport, jamoatchilik sohalarida ishtirok etdilar. Ular o’zlarining har bir tanlagan sohalar bo'yicha, o'zining vatanparvarligi, ma'naviy yetukligi, a'lo xulqi, noyob iste'dodi, zukkoligi, tashabbuskorligi, o'qishdagi muvaffaqiyatlari hamda ta'lim, fan, adabiyot, madaniyat, san'at, sport sohalarida va jamoatchilik faoliyatida erishgan alohida yutuqlari, shuningdek, (Prezident asarlari, mamlakatning ichki va tashqi siyosati haqida, istiqlol mafkurasi asosida erkin fikr yurita bilishi), Vatanimiz tarixi, milliy allomalarimiz va jahon madaniyati merosini yaxshi egallaganligi bilan boshqa talaba qizlar va o'quvchilardan ajralib turadigan shaxsiy sifatlariga ega ekanliklarini tanlovda ko'rsata oldilar. Tanlovda ishtirok etgan 20 nafar ishtirokchidan 4 nafari tuman tanlovning ilk g’olibligini ko’lga kiritdilar.



Ular:Xatamova Ra’no – fan sohasi Gumanitar fanlar kafedrasi tayanch dokoranti, Sultonova Farangiz 2-bosqich TN5-guru -Ta’lim, Jonuzoqova Marvarid 2 bosqich,-AF2-Jamoatchilik, Yusufjonova Shaxzoda – 2-bosqich AF1 -Sanat sohalar bo'yicha tuman g’olibligiga erishdilar. Qizlarimiz, tanlovda o’zlarining va institut va akademik litseyda olgan ta'lim-tarbiya sohasidagi bilmlari bilan birga quyidagi tanlov talablariga ham javob bergen holda o'z ta'lim muassasalarini ko'klarga ko'tardilar desak mubolog'a bolmaydi.

### Nomzodlar:

- siyosiy-ijtimoiy hayotda faol, tashabbuskor bo'lishi;
- nomzodlar tanlagan sohalarida Respublika hamda xalqaro miqyosdagi tanlovlар va tadbirlarda yutuqlarni qo'lga kiritgan bo'lishi;- xorijiy tillarni bilishi;
- nomzodlarda yetakchilik, notiqlik qobiliyati ham mujassam bo'lishi va boshqalar.

Institut jamoasi, Xotin qizlar masalalari bo'yicha Kengash raisi va barcha a'zolari nomidan «Zulfiya» nomidagi davlat mukofotining ilk g’oliblarini tabriklab, ularga keyingi bosqichlarda **omad tilaymiz!!!**

**TIQXMMI matbuot xizmati**